



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISH VA "E- COMMERCE" BOZORI

Ahmedova Zulayxo Sharofaddin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

E-mail: zulish1248@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12819835>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning muhim yo'nalishi hisoblanmish O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari yuzasidan fikr va mulohazalar yuritiladi. Raqamli iqtisodiyot shuningdek, elektron tijorat tushunchasi mamlakatimizdagi yosh va jadal rivojlanayotgan sohalardan biri ekanligi sababli, ushbu yonalish haqida manbalar afsuski yetarlicha topilmaydi. Joriy yetishmovchiliklarni to'ldirishda o'z xissamizni qo'shish maqsadida, maqolada turli mulohaza va takliflar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, internet, elektron biznes, elektron tijorat.

Raqamli iqtisodiyot hamda, elektron tijorat borasida qilingan nazariy va amaliy ishlarni tahlil qilgan holda yangidan-yangi takliflar va metodlarni yaratish borasida bir qancha ilmiy izlanishlar qildik. Zero qilingan ilmiy izlanish davomida ko'plab masalalarga yechimlar topishni maqsad qildik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3-iyuldagi PQ-3832-sonli qaroriga binoan iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilmoqda, elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda.

O'z navbatida keng qamrovli xizmat - korporativ mijozlarga ham, oxirgi iste'molchiga ham xizmat ko'rsatadigan Internet-vositachilar paydo bo'lmoqda. Ular avtomatlashtirilgan axborot kanallari orqali mijozlariga xizmat ko'rsatish boyicha ishlarni olib boradi:

- sotishdan oldin ishlar potensial xaridorlar va buyurtmachilar bilan ishlash, onlayn marketing;
- onlayn buyurtmalar (bevosita bitim bilan bog'liq vazifalari) - xizmat xaridorlar va iste'molchilar, maxfiy axborotni muhofaza qilish;
- moliyaviy xizmatlar - buyurtmalarni bajarish bilan bog'liq onlayn- tranzaktsiyalarning tarkibiy qismlari;





- sotishdan keyingi ishlar – buyurtma, hisob-kitob, almashtirish, nizolarni hal qilish holatini kuzatish.

Bundan tashqari taqdim etilgan ma'lumotlarga o'zgarish kiritish osonligi va shu tariqa vaqt va harajatlarni tejab qolinishi raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratning inson hayotida naqadar muhim o'rin egallaganligini ko'rsatadi. Sohaning izchil rivojlanayotgani va keng ommaga tarqalayotganining sababi ham aynan shu.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki elektron tijorat sodda qilib aytganda ijtimoiy tarmoqlar hamda boshqa internet sahifalari kabi elektron vositalar ko'magida ehtiyojlarimizni qondiradigan xizmatlar va tovarlarni sotib olish yoki aksincha sotish kabi online tijorat amaliyotidir. Demak jahon standartlarida ishlashimiz biznesimizni takomillashtirib tovarlarimizni jahon bozorlariga milliy brend tarzida olib kirishimizda raqamli texnologiyalarning o'rni beqiyos. Ammo har qanday raqamli biznesni boshlashdan oldin, u qaysi modelga kirishini bilishingiz kerak.

Elektron tijorat quyidagilardan iborat :

- Elektron malumot almashish (Electronics Date Interchange,EDI);
- Elektron kapital harakati (Elektronic Funds Transfer, EFT);
- Elektron savdo (inglizcha e-trade);
- Elektron pullar (e-cash);
- Elektron marketing e-marketing);
- Elektron bank (e-banking);
- Elektron sug'urta xizmatlari (e-insurance).

Elektron tijorat amaliyotida shuni ko'rish mumkinki, aksariyat holatlarda elektron tijoratning yuqori samaradorligi muomaladagi xarajatlarni minimallashtirish orqali ta'minlanadi. Ushbu sohada elektron tijorat samaradorligini baholashga uslubiy yondashuv quyidagicha bo'lishi mumkin:

- elektron tijoratning samaradorligini baholash uchun o'rganilayotgan obyekt sohasini aniqlash;
- ushbu sohadagi tadbirkorlik subyektining maqsadli funktsiyasini aniqlash;
- maqsadga erishish uchun ishlanish ko'rsatkichlarini aqlash;
- ishlash mezonlarini shakllantirish;
- samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash uchun zarur statistik va boshqa ma'lumotlarni olishni tashkil etish;
- ko'rsatkichlar va ishlash mezonlarini hisoblash;
- natijalarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilish.





Elektron tijorat dasturlari tobora keng qamrovli yo'nalishlarni taqdim qilib bormoqda, qo'llanilishning ham yangi yo'nalishlari paydo bo'la boshladi. Buguni kunda bir necha to'liq shakllangan elektron tijorat tizimlarini sanab o'tishimiz mumkin.

Kompaniyaning bozor strategiyasiga qarab, Internetdagi quyidagi shakllari mavjud:

- elektron biznes karta;
- elektron do'kon;
- internet do'kon.
- elektron katalog;
- savdo internet-tizimlar;

Elektron biznes kartasi bir necha sahifalardan iborat bo'lgan kompaniya va uning faoliyati haqida ma'lumot. Bunday saytning asosiy vazifasi – potensial mijozga oddiy biznes ma'lumotnomasi yoki reklama e'loniga o'xshash bo'lib kompaniyaning xizmatlari bilan tanishish uchun imkoniyat berish.

Mijozni xabardor qilishning yanada rivojlangan shakli – bu tovarlar va xizmatlar haqida batafsil ma'lumot beruvchi va ko'pincha hozirgi narxlar bilan xabardor qiluvchi **elektron katalog**.

Elektron do'kon sizga nafaqat mahsulot yoki xizmatni tanlash, balki Internet orqali Buyurtma berish va xarid qilish imkoniyatini beradi.

Internet do'kon oddiy do'kon bo'lib, tovarlar va xizmatlarni sotish lekin onlayn uslubda, shuningdek maqsadli auditoriyaga yo'naltirilgan bo'ladi. Asosiy maqsad – mahsulotlar sotuvi. Savdo hajmini oshirish asosiy maqsadi hisoblanadi. Ko'pincha savdo bo'limining murakkab tashkiliy tuzilishibilan farqlanadi.

Nihoyat, **savdo internet-tizimi** umumiy logistika izimi, Tovar zahiralarni boshqarishni, internet-do'konni va odatiy do'konlarni yagona tizimga birlashtiradi.

Xulosa o'rnida takidlashimiz kerakki, iqtisodiyotni raqamlashtirgan mamlakatlar allaqachon jahon maydonida mustahkam o'rin egallamoqda. Albatta raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat bu yo'lda "mayoq" vazifasini o'taydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Elektron do'kon, ijtimoiy media marketing xizmatlari va boshqa ko'p imkoniyatli xizmatlarni taklif qilish orqali biznesingizni rivojlantirishingiz mumkin.

Shuni qo'shimcha qilish kerakki, onlayn savdo faoliyatini yangi boshlayotgan kichik biznes subyektlari uchun chakana savdo nuqtalari va ofislarni ijaraga olishda mablag'larni tejaydi, shuningdek, internet orqali xorijiy bozorlarga chiqish ancha osonlashadi. Taklif etilayotgan tovar va xizmatlarning keng assortimenti, turli narxlarning taqqoslanishi, shuningdek, elektron platformadagi





chakana tovarlar narxining an'anaviy bozorga nisbatan arzonligi elektron tijoratning mahalliy bozorga tez moslashishi va rivojlanishiga xizmat qilmoqda.


Shu bilan birgalikda, ma'lum bir davlatda elektron tijoratni rivojlantirish uchun quyidagilarga amal qilish muhimdir:

- Elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay huquqiy muhitni, jumladan, ma'lumotlarni himoya qilish va elektron imzo to'g'risidagi qonun hujjatlarini yaratish, ularni tadbiq etilish jaroyanida shaffodlikni ta'minlash;
- Elektron tijorat infratuzilmasini, jumladan, Internetga keng qamrovli ulanish va elektron to'lov tizimlarini rivojlantirish;
- O'z biznesini kengaytirish uchun elektron tijorattan foydalana oladigan kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlash;
- Iste'molchilarni elektron tijorattan foydalanish bo'yicha huquqiy savodxonligini oshirish va qo'llab-quvvatlash, shu jumladan Internet va elektron to'lov tizimlarida xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirish;
- Elektron tijorat orqali xalqaro savdoni rivojlantirish, jumladan, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va xalqaro standartlarni o'rnatish;
- Elektron tijoratda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, jumladan, yangi texnologiyalar va biznes modellarini ishlab chiqish;
- Mobil elektron tijoratni rivojlantirish, shu jumladan mobil ilovalar yaratish va mobil qurilmalar uchun saytlarni optimallashtirish;
- Barqaror elektron tijoratni qo'llab-quvvatlash, jumladan, uning o'sishiga to'siq bo'luvchi muammolarni bartaraf etish.

Umuman olganda, elektron tijoratni rivojlantirishda yuqorida qayd etilgan samarali usullari savdoni oshirishga, mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilashga va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Porsaev G'.M., Safarov B.Sh., Usmanova D.Q.. Raqamli iqtisodiyot asoslari 2020-yil.
2. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). Digital economy report 2019.
3. Digital 2019: global digital overview. Value creation and capture: implications for developing countries. UNCTAD, 2020.
4. World Trade Statistical Review 2019 - World Trade Organization.
5. Kurpayanidi, K., Ilyosov, A. (2020) Problems of the use of digital technologies in industry in the context of increasing the export potential of the country// ISJl Theoretical & Applied Science. p. 113-117.





6. Егорова А.Ю., Неверова Е.Т. Электронный бизнес в современной экономике. Доступно на: <https://izron.ru/articles/razvitie-ekonomiki-i-menedzhmenta-v-sovremennom-mire-sbornik-nauchnykh-trudov-po-itogam-mezhdunarodn/sektsiya-2-ekonomika-i-upravlenie-narodnym-khozyaystvom-spetsialnost-08-00-05/elektronnyy-biznes-v-sovremennoy-ekonomike/>
7. Юрасов А.В., Иванов А.В. Интернет маркетинг. Москва, изд. Горячая линия- телеком, 2007, 245 с.
8. Майминас Е.С. Информационное общество и парадигма экономической теории// Вопросы экономики. 1997. No 11.
9. Nabijonov O., Shavkatova Sh., Sattorova S. (2022). THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE STRATEGY FOR MINIMIZING PRODUCTION COSTS AT ENTERPRISES. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2(7), 27–29. retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/1918>
10. Nabijonov Otabek Ganievich and Sh. A. Kholbutaeva (2022). THE ROLE OF CONSULTING IN A MODERN MARKET ECONOMY. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (2), 5-8.
11. Холикова Рухсора Санжаровна и Бахтиеров Ахмадбек Феруз-оглу. (2023). ИТОГИ электронной ТОРГОВЛИ, СОЗДАНИЕ УСКОРЯЮЩЕЙСЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. Зона электронной конференции, 40-43. Извлечено из <http://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1876>
12. Бахтиеров, А. (2022). Торгово-экономические показатели с помощью цифровой экономики. Gospodarka i Innowacje., 24, 720-726.
13. Бахтиеров, А. (2023). ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОБОЧНЫЕ ЭФФЕКТЫ СИСТЕМЫ ОТКРЫТОГО РЫНКА Для РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 2(8), 9-11.

